

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**TOSHKENT SHAHRIDAGI YODJU TEXNIKA INSTITUTI FAOLIYATINI TASHKIL  
ETISHNING QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Respublika iqtisodiyot tarmoqlari uchun arxitektura va shaharsozlik, qurilish, muqobil energiya, turizm va biznes sohalarida xalqaro talablar va standartlarga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliv ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlari yanada kuchaytirish, xorijiy davlatlarning yetakchi oliv ta'lim muassasalari bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish hamda Toshkent shahridagi Yodju texnika instituti faoliyatini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

**1. Quyidagilar:**

a) "Global education school" nodavlat ta'lim muassasasi hamda "YUKET LLC" mas'uliyati cheklangan jamiyati (Koreya Respublikasi) (keyingi o'rnlarda Muassis deb ataladi) hamkorligida tashkil etilgan "Toshkent shahridagi Yodju texnika instituti" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxonasi (keyingi o'rnlarda Institut deb ataladi) o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatini litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2018-yil 27-martdagi 241-son [qaroriga](#) muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan berilgan litsenziya asosida 2018-yilning sentyabr oyidan boshlaganligi;

b) Muassislar tomonidan Institutning asosiy vazifalari etib:

mehnat bozorining ehtiyojlarini inobatga olgan holda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollariga, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarga muvofiq, arxitektura va shaharsozlik, qurilish, muqobil energiya, turizm va biznes sohalarida hamda talab yuqori bo'lgan boshqa yo'nalishlar bo'yicha oliv malakali kadrlar tayyorlash;

kadrlar tayyorlashda arxitektura va shaharsozlik, qurilish, muqobil energiya, turizm va biznes sohalari bo'yicha faoliyat olib borayotgan tashkilotlarda talabalar amaliyotini muntazam tashkil etish;

o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda xorijiy tajribani, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'quv jarayoniga malakali xorijiy, xorijda tahsil olgan va malaka oshirgan mahalliy mutaxassislarni jalb etish;

ilmiy izlanishlarga ehtiyojni inobatga olgan holda arxitektura va shaharsozlik, qurilish, muqobil energiya, turizm va biznes sohalarida hamda talab yuqori bo'lgan boshqa yo'nalishlar bo'yicha innovatsion va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish;

arkitektura va shaharsozlik, qurilish, muqobil energiya, turizm va biznes sohalarida ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatish, integratsiyani kuchaytirib borish belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2. Belgilansinki:**

Institut mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi nodavlat oliv ta'lim tashkiloti hisoblanadi;

Institut rektori muassislar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtalik maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi;

Institutning tuzilmasi muassislar tomonidan tasdiqlanadi;

Institut ta'lim faoliyatini O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun hujjalari talablarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtalik maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda Yodju texnologiya institutining (Koreya Respublikasi) o'quv rejalarini va dasturlari asosida o'zbek, rus va ingлиз tillarida amalga oshiradi;

Institut bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasida oliv ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida e'tirof etiladigan belgilangan namunadagi diplom beriladi;

Institutga talabalar qabuli umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumotga ega abituriyentlar o‘rtasida kirish imtihonlarini Yodju texnologiya instituti (Koreya Respublikasi) tomonidan (yoki ishtirokida) o‘tkazish orqali amalga oshiriladi;

abituriyentlarni qabul qilish parametrlari va tartibi, bitiruvchilarining yakuniy attestatsiyasi tartibi va shartlari Institut tomonidan Yodju texnologiya instituti (Koreya Respublikasi) bilan kelishilgan holda belgilanadi;

Institutda o‘qish to‘lov-kontrakt asosida, kunduzgi, sirtqi va kechki shaklda amalga oshiriladi, talabalar o‘qishi uchun to‘lov-kontrakt mablag‘lari miqdori muassislar tomonidan belgilanadi.

3. Muassisning har yili ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning qobiliyatli, iqtidorli hamda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan farzandlari orasidan tanlov asosida bepul (Institut granti asosida) 10 nafardan kam bo‘lmagan abituriyentlarni o‘qishga qabul qilish majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, Institutning bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, uni o‘quv va laboratoriya jihozlari, mebel, kompyuter texnikasi, o‘quv va uslubiy adabiyotlar, shuningdek, boshqa moddiy-texnik jihozlar bilan ta’minalash quyidagi manbalar hisobiga amalga oshiriladi:

Institut muassislari mablag‘lari;

to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar;

xo‘jalik faoliyatidan va shartnomada asosida xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan tushumlar; jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari, shuningdek, xorijiy hamkorlarning mablag‘lari; qonun hujjatlarda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

5. Institutga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Yodju texnologiya instituti (Koreya Respublikasi) bilan kelishilgan holda, mehnat bozori talablari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollaridan kelib chiqib, kelgusida yangi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish huquqi berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Institut buyurtmanomalariga binoan mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy professor-o‘qituvchilar tarkibi va ma’muriy xodimlar hamda ularning oila a’zolari uchun kirish vizalari konsullik hamda boshqa yig‘imlar undirilmasdan, belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta’milas.

7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Institut buyurtmanomalariga binoan mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy professor-o‘qituvchilar tarkibi va ma’muriy xodimlar hamda ularning oila a’zolari uchun davlat boji undirilmasdan, belgilangan tartibda ko‘p martalik vizalar berilishi va uzaytirilishini, shuningdek, ularning yashash manzillari bo‘yicha vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazilishi hamda uning muddati uzaytirilishini ta’milas.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.A. Abduxakimov, O‘zbekiston Respublikasi oliv va o‘rta maxsus ta’lim vaziri I.U. Madjidov hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘i U.N. Tashkenbayev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 17-dekabr,  
1007-son

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.12.2019-y., 09/19/1007/4166-son)*